

**HANAFIY FIQHINI RIVOJLANISHIDA
BUXORODAGI OLI MOZA OILASINI O'RNI**

*Nasriddinzoda Isroiljon,
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
“Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini
o'rghanish ICESCO” kafedrasи tayanch doktoranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqola Hanafiy fiqhining rivojlanishida Buxorodagi Oli Moza oilasining ahamiyatini o'rghanadi. Maqola, oliyning tarixiy ildizlari Umar ibn Abdulaziz ibn Marvonga borib taqalishini va ularning Movaraunnahrda Hanafiy mazhabи yetakchilari sifatida qanday tanilganini ko'rsatadi. Oli Moza oilasi qoraxoniylar davrida Buxoro podshohlari bo'lib, turklarga 89 yil hukmronlik qilgan va bu davrda ilmiy, diniy va siyosiy sohalarda muhim rol o'ynagan. Maqolada Abdulaziz ibn Umar ibn Moza, Sadr ash-Shahid va uning avlodlari, jumladan Sadr as-Said va Sadr Jahon kabi mashhur shaxslarning ilmiy merosi, ularning fiqh va ma'rifatdagi yutuqlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqola Sadr Shahidning ilmiy faoliyati, o'z asrining yetakchi olimlaridan biri sifatida tanilganligi va uning o'g'illari, shogirdlari tomonidan davom ettirilgan ilmiy ishlar haqida ma'lumot beradi. Maqola, shuningdek, Buxorodagi ilmiy muhit, Hanafiy fiqhining rivojlanishi va Ali Moza oilasining bu jarayondagi o'rni haqida tarixiy va ilmiy kontekstda keng tushuncha yaratadi. Shuningdek, oliyning ilmiy merosi va ularning boshqa fiqhiy va aqliy faoliyatları hamda tarixiy ahamiyati haqida batafsil tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Oli Moza, xalifa, faqih, Movaraunnahr, “Tarixi Buxoro”, “Ta'lim-muta'allim”, “Hidoya”.

Mozalar oilasi Buxorodagi eng yirik oilalardan biri bo'lib, u Banu Moza nomi bilan mashhur. Banu Mozaning nasl-nasabi beshinchi xalifa sifatida mashhur bo'lgan Umar ibn Abdulaziz ibn Marvonga borib taqalishi bo'yicha ma'lumotlar

keltiriladi.

Bu oila o‘zining ilm-ma‘rifati, sa’y-harakati, yetakchiligi, shon-shuhrati, ulug‘ligi bilan dunyoga mashhur bo‘lgan. Ular orasida Movaraunnahrda avloddan avoldga o‘tib kelayotgan Hanafiy mazhabi yetakchilari ham bor edi.

Ular qoraxoniylar davrida Buxoro podshohlari bo‘lishgan, Movaraunnahrda turklarga 89 yil hukmronlik qilgan suloladir. Bu sulola qoraxoniylar podsholari nomi bilan mashhur bo‘lib, ularning podshosi adolatli va yaxshi xulq-atvori bilan tanilgan. Ular mo‘g‘ullar kabi dushman oldida o‘tib bo‘lmash to‘siq bo‘lib, ular(mo‘g‘ullar) shu sulolaga bo‘ysunar, ularga tovon to‘lar edilar. Al-Qazviniy “Al-asarul bilaad” kitobida Buxoro haqida keltirib, shunday ishora qilgan:

“Hali ham Buxoro faqihlar va fozillarning makoni va ilm o‘chog‘idir. Uning qarorgohi Baytul Muborakda joylashgan, uning rahbari esa Xoja Imom Buzruk bo‘lgan. Va ularning avlodlari shu kungacha (ya’ni al-Qazviniy kitobi yozilgan yilga qadar, milodiy 674-1275-hijriy) mavjud. Nasablari Umar ibn Abdulaziz ibn Marvonga yetib boradi. Ularning rahbarlari avloddan-avlodga ilm va ulamolar tarbiyasini meros qilib oldilar, siz Buxoroliklar ilm ahllarini qanchalik kuchli hurmat qilishlarini ko‘rmagansiz”.

Qazviniy Buxoroda faqihlarning sonini taxminan to‘rt mingta deb zikr qiladi va to‘rt ming faqih deganda, ularni ilmiy va turmush tomonidan kuzatish tushuniladi. Ular Burhon va boshqa oiladan ekanligi ko‘rinadi.

Bu oilaning eng ko‘zga ko‘ringan shaxsi Abdulaziz ibn Umar ibn Moza-Sadr ash-Shahidning otasi bo‘lib, u «Sadr al-Madiy», «Burhonul imom», «Burhoniddin Kabir», «Siroj», «Imom» kabi nomlar bilan tanilgan, Abu Muhammad nomi bilan kunyalangan. Va u Buxoro xalqining imomi va hukmdori bo‘lgan. Sulton Sanjar 495-1102-yil hijriy yilda Abdulaziz ibn Umar ibn Mozani Buxoroga topshiriq bilan jo‘natganini, uni Sadr deb ataganini va o‘sha kundan boshlab u as-Sadr nomi bilan mashhur bo‘lganini ba’zi taniqli kishilar zikr qilishgan.

Abdulaziz ibn Umar bin Mozanining ikki o‘g‘li bo‘lib, ulardan biri Sadr ush-Shahid Umar ibn Abdulaziz, ikkinchisi Sadr as-Said laqabli Toj ud-Din Ahmad edi,

u “Hidoya”ning mualliflaridan biri edi. “Hidoya” muallifi: “**U menga eshitganlarimni rivoyat qilishimga ruxsat berdi, uni Buxoroda aytib berishimga ijozat so'radim va u o'z xati bilan meni xursand qildi**”, deydi.

Ismi Toj ul Islam ibn Abdul Aziz Moza, Sadr as Sa'iyd nomi bilan laqablangan. Akasi Imom al Mashriq as Sadr ash Shahid Abdul Aziz ibn Moza qatlidan keyin, Qoraxondan oldin Buxoro hukmdori Batkin tomonidan vazir etib tayinlangan.

Sadr as-Sa'iyd Ahmadning 2ta o‘g‘li bo‘lgan:

Birinchisi, “Al muhiyt ul Burhoniy”, “Zaxiyratul Burhoniy” kitobi sohibi Burhoniddin Mahmud Sadriddin nomini olgan. O‘g‘lining ismi Tohir, Sadrul Islom nomini olgan. U adolatli a’yonlardan edi, usul va fiqhda qo‘lidan kelgancha yordam berardi.

Ikkinchisi, Mas‘ud ibn Ahmad ibn Abdul Aziz Burhoniddin Mahmudning ukasi. Mas'ud faqih Burhonul Islom Umarning o‘g‘li bo‘lib, hijriy 615/1218-yilda vafot etgan.

Abdul Hay Leknaviy: “Mahmud buyuk imomlardan, va mashhur faqihlardan edi. Ilmi dengiz kabi mo'l-ko'l, tajribasi yuksak edi. Ilmni dastlab otasidan so'ng amakisi Sadr ush-Shahiddan olgan, masalalarda mujtahidlardan edi va uning asarlari ko‘p”. Uning ismida ixtilof qilishadi, Mahmud emas Muhammad deb aytishadi, va bu ko‘p fikrlarga qarshidir. Ko'pchilik Leknaviy aytgani kabi Mahmud ekanligiga kelishishgan.

Mahmudning o‘g‘li Sadrul Islom uning ismi: Tohirdir. U Hanafiy faqihlarining mahshurlaridan bo‘lgan va usulda va far‘da mohir bo‘lgan. Shuningdek, u naqliy va aqliy ishlarda to‘liq ishtirok etardi, uni bir necha foida va fatvolari bor.

U “al-Muhit al-Burhoniy”, “Zuxayro”, “at-Tajrid”, “Tatimmatul fatavo”, “Sharhul jome’ sag’ir”, “Sharh lizayadat”, “Sharh adabil qazoi lilxisof”, “al-Fatavo”, “al-Voqeat”, “Toriyqotul Burhaniyya” va boshqa ko’plab kitoblar muallifidir. Bu kitoblarni otasi va bobolari Sadrus Said, Sadrush Shahidlardan olgan ilmlariga tayanib yozgan.

Sadrush Shahidni esa bitta o'g'li bo'lib uning ismi: Shamsuddin Muhammad, Abu Ja'far deya kunyalangan edi. Hijriy 511/1117-yilda tug'ilib, hijriy 561/1166-yilda vafot etgan. Buxoroning katta va adolatli faqihlaridan bo'lib, shoxlar va sultonlar uni hukmini qabul qilishar edi.

Abu Ja'far Shamsuddin hijriy 552/1157-yilda haj qilish uchun Bag'dodga safar qiladi. Bu haqida otasi so'zlab bergen, hamda shu yili bu ziyyarat haqida "Latoiful azkor lilhazor vas safar" nomli kitobini yozgan.

Abu Ja'far Shamsuddin sababli Narshaxiyning "Tarixi Buxoro" nomli kitobi tarjima qilinadi. Narshaxiyning bu kitobi 332/943-yilda yuksak arab tili iboralaridan foydalanib yozilgan edi. O'sha paytda insonlar arab tilida kitob o'qishga qiziqaverishmasdi. Shu sababli, ba'zi do'stlar Muhammad ibn Zufar ibn Umardan uni fors tiliga tarjima qilishni so'rashdi. U ham bunga rozi bo'ldi va 552/1128-yilda tarjima qilib tugatdi. Bu kitobning arab tilidagi nusxasida ortiqcha, aytishga yaroqsiz, zerikarli ma'lumotlar bor edi, tarjimada esa bu ma'lumotlar olib tashlandi. Ikki Haram imomi, din va millat qilichi, ummat tayanchi, shariat sultoni, buyuk va aziz Abdulaziz ibn Sadr Imom Hamid Burhoniddin Abdulaziz(Alloh qabrini nurga to'ldirsin) bilan majlisda hamsuhbat bo'lgan Muhammad ibn Zufar bu kitobga yana 574/1178-yilda o'zgartirishlar kiritdi.

Shamsuddinning bir farzandi bo'lib, ismi Abdulazizdir. U ham Burhon oilasining mashhur va buyuk a'zosidir. Hanafiy fiqhida faqihlardan edi.

Abdulazizning ham bir farzandi bo'lib, ismi Burhoniddin Muhammaddir. 616/1218-yilda vafot etgan. Sadr Jahon deya tanilgan. Otasining ismi borasida kelishmovchilik bor, Leknaviy o'zining "al-Favaid al-Bahiyya" nomli kitobida uni Kafaviydan naql qilib "Muhammad ibn Ahmad ibn Abdulaziz" deya aytgan. Ibn Asir ham shunaqa rivoyat qilgan. Ammo Muhammad ibn Abdulaziz ibn Muhammad ibn Umar ismi mashhurdir.

U Moza urug'inining sharaflı imomlaridan edi. Muhokama qilishda mohir, o'xshashi yo'q, bir necha ilmlarni bilgan, ixtiloflarni bayon qilgan, 6 mingga yaqin faqih bilan yashagan edi. 605/1208-yilda haj qilib Bag'dodga keldi. U bilan birga ko'plab faqihlar bor edi. Ularga yana ko'plab ulug'lar, davlat odamlari qo'shildi,

hamda haj qilib yurtiga qaytdi. Shu asnoda Sadr Jahon laqabini oldi.

Tepada o'tilganlardan shu ma'lum bo'ldiki, bu kitob sohibi Sadr Shahid o'zining fazli, karami, ilmi bilan odamlar orasida mashhur bo'lgan.

Alloma Mu'izziy Al-Moza oilasinining bir a'zosini maqtab uzun she'r bitadi. Bu kishi esa Sadr Jahon Abdulaziz ibn Muhammad ibn Umar ibn Abdulaziz bo'lib, uning martabasini go'zal uslubda ochib bergen. Ushbu she'rdan qisqa parcha bilan tanishsak:

(Ma'nosi:) Kimki, Burhon oilasining barchasi saodat yetishgan deb o'ylasa, to'g'ri o'ylagan bo'ladi. Ehtimol, ba'zilari erishgan bo'lishlari ham mumkin. Ammo Abdulaziz avlodi shubhasiz saodatdadir.

Yuqorida o'tilganlarni mulohaza qiladigan bo'lsak, Qoraxoniylar (1004-yildan Movarounnahrga hukmronlik qilgan sulola) Saljuqiylargacha 1072-1092 qaram bo'lgan. Sulton Sanjar Saljuqiy taxtga o'tirgach, Xuroson hokimiyatini akasining o'g'li, Samarqand amiri Muhammad Arslonxonga topshiradi. U qoraxoniylar sulolasiga mansub edi. Qozilik ishlarini esa Buxoro shahriga ko'chirib, o'sha davrda ko'zga ko'ringan Umar ibn Abdulaziz ibn Moza ya'ni Sadr Shahidni qozilikka ta'yinlagan edi.

Bundan oldin ham Al-Moza oilasi bu mansabga ega chiqqanlik ehtimoli bor. Negaki, Burhon oilasi mahalliy Al-Moza oilasi silsilasiga asos solgan edi. Bu oila yillar mobaynida, Xorazmshohlar tugaguncha(1220-yil) bu mansabda qoladi.

Sadr Shahid Husamuddin Umar ibn Abdulaziz Buxoroda nasabi qadimiyligi, shon-shuhrati yuksak bir oiladan kelib chiqqan. Uning oilasi ilm ma'rifat, saxiylik, oliyjanoblik bilan mashhur edi va nasabi Umar ibn Abdulaziz ibn Marvonga borib taqaladi. Uning eng katta bobosi Moza, farzandlari esa Banu Moza nomi bilan mashhur edilar.

U Umar ibn Abdulaziz ibn Umar Moza al-Buxoriy, Hanafiy. U Abu Muhammad, Abu Hafs, Abu Mafoxir deb kunyalangan. Eng katta bobosi Umar Moza, o'g'li Mozah nomi bilan atalgan. U safar oyida hijriy 487/1090-yilda Buxoroda tug'ilgan va 536/1141-yilda vafot etgan.

Laqabi: "Husamiddin", "Husamushshahid", "Sadr Shahid", "Burhan ul-

aimma”, “Imam ul-mashriq” nomlari bilan atalgan. Sadr uning laqabi, otasi Abdulazizniki esa “Burhanuddin ul-kabiyr” edi. Shayx Haniyfa Abu Hafs Umar ibn Abdulaziz ibn Umar ibn Moza al-Buxoriy Shams ul-aimma Ahmad ibn Sahl Sarxosiydan, u Abu ‘Ala Nasafiydan, imom Muhammad ibn Fazl ustoz Abdulloh Sabzamuniydan, imom Abu Hafs Sog’iyr otasi Abu Hafs Sog’iyr dan, eng buyuk imom Abu Haniyfaning do’sti imom Muhammad ibn Al-Husn Shayboniydan, eng buyuk imom Abu Haniyfa No’monlar(Alloh taolo ularning barchalarini rahmatiga olsin) dan otasi Shayx Burhan ul-aimma Abdulazizga fiqhdan ta’lim bergan. Zahabiy “Ta’lim-muta’allim” kitobida o’zining Shayxi “Hidoya” kitobining muallifi haqida aytib o’tgan Shayx Burhan ul-Islam Zarnujiydan naql qiladi: “Sadr Al-Ajal Burhan ul-aimma saboq olish vaqtini barcha saboqlardan keyin o’g’illari Sadr Said Tojuddin Ahmad va Sadr Shahid Husamuddin Umarga katta choshgoh vaqtini ajratganlar. Ular tabiatimiz charchaydi va malollanadi deyishganida otalari **“o’zga yurtdagilar va Amirlarning farzandlari mening oldimga dunyoning turli tomonlaridan kelishadi, men ularning saboqlarini oldin berishim zarur”**, - derdi. Uning barokati va shafqati bilan o’g’illari fiqhda dunyoning aksar faqihlaridan ustun bo’lishdi. Bizga Zahabiy Ibn Sam’oniydan, u otasidan boshqa shayxlardan eshitgan Shayx Sadr Shahiddan naql qilgan va bu o’zi bitgan Islom tarixida kelgan. U otasidan, Ali ibn Muhammad ibn Xidam va Haddaslardan eshitgan. Uni Marvda uchratdim va uning munozalarida qatnashdim.U Abu Sa’d Ahmad ibn Tuyuriy va Abu Tolib ibn Yusuf kabi bir guruh bag’dodliklar haqida aytib o’tdi.

Sadr Shahidning ilmiy mavqesi.

Uning ilmiy mavqeyiga kelsak, Sadr Shahid otasi Abulmafoxirdan fiqhni o’rgandi, mazhabda mohir bo’ldi, o’z asrining Shayxiga aylandi, nazr ilmidan saboq oldi, tirishib harakat qildi va zamonasining eng birinchilaridan va ulamolar noziri bo’lishga g’ayrat qildi, faqihlarga dars berdi, nizolarni bartaraf qildi, otasi tiriklik chog’ida Xurosonda fozillardan yetuk bo’ldi. Ali bilan Tuyuriy kabi bir guruh bag’dodliklar haqida aytib o’tdi “Hidoya” muallifi buni shayxlarining lug’atida zikr qilib o’tgan va shunday degan: **“Ilmiy nazr va fiqhdan bilimga ega olim odamdan**

ta'lism oldim, uning foydalarini nazr davralarida mustahkam o'zlashtirdim. U meni g'oyatda ikrom qilardi, xos o'quvchilaridan qilardi. Lekin menga undan rivoyat qilishda ijoza olish nasib qilmadi. Bir necha Shayxlar (Alloh ularning barchalarini rahmatiga olsin) u haqida aytib berishdi.”

U shavkatli edi, safar oyining 5-kuni Halaku va Sanjar urushida Allah unga shahidlik nasib etgunga qadar hurmat-izzatda yashadi. Bu buyuk voqeа edi. Ibn Sam'oniy shunday deydi: “**Men uni navbatchilikka chiqqanida farzandlari va do'stlari bilan xayrlashayotganini va ularning oldiga qaytmaydigandek xayrlashganini eshitdim.**” Allah uni rahmatiga olsin va O'zi undan rozi bo'lsin. U otasidan, Ali ibn Muhammad ibn Xidamdan va Haddasdan eshitgan. Uni Marvda uchratdim va uning munozalarida qatnashdim. U Abu Sa'd Ahmad ibn Tuyuriy va Abu Tolib ibn Yusuf kabi bir guruh bag'dodliklar haqida aytib o'tdi. U Husom nomi bilan taniqli edi. U 483/1090-yilda tug'ilgan. Undan Abu Ali Al-Hasan ibn Mas'ud Damashqiy ibn Al-Vazir va boshqalar eshitgan. Xalq u tufayli dinni tushunadigan bo'lishdi va 536/1141-yilda qiyonoqlar bilan o'ldirildi.

Bu katta manzilga o'mashganlaridan so'ng, ular fiqhda, usulda, aqliy va naqliy sohalarda imomga aylandilar. Tinmay harakat qildilar va o'z zamonalaridagi kuchli ma'rifat va ilm sohibalaridan biri bo'lish darajasiga muzokara yo'li orqali yetishdilar. Bunga tarix zarvaraqlari guvohlik beradi. Zahabiy Ibn Samo'niydan naql qilib aytadiki: “**Men uni Marvda uchratdim va muzokaralarida qatnashdim**”. Bu borada Laknaviy aytadiki: “**Uning fazilatiga (Sadr Shahidning) do'st-u dushman barcha iqror bo'lgan**”.

Zarnujiy Hisom Shahiddan hikoya qiladi: Ular o'z o'g'illari Shamsuddin Muhammadga vasiyat qilib aytdilarki: “**Har kuni ilm va hikmatdan oz bo'lsada o'rgangin, yaqin orada ko'payur**”.

Uning qo'lida ta'lism olgan o'quvchilar:

1. Shamsuddin nomi bilan kunyalangan o'g'illari Muhammad Abu Ja'far.
2. Ularning ukalari Sadr as-Said nomi bilan kunyalangan Toj ud-Din Ahmad.

3. Ukalarining o'g'li Burhoniddin nomi bilan kunyalangan "Al-muhiyt al-burhaniy","Az-zaxiyrot al-burhaniyya"nomli kitoblar muallifi Mahmud.
4. Ukasining nevarasi Sadr ul-Islom nomi bilan kunyalangan Tohir ibn Mahmud.
5. Abu Hafs Sharafiddin Umar ibn Muhammad ibn Umar al-Uqayliy hijriy 571/ milodiy 1175- yilda vafot etgan.
6. Abu Ali al-Hasan ibn Ma'sud ibn al-Dimashqandiy Ibn al-Vazir hijriy 543/milodiy 1148- yilda vafot etgan.
7. Abu Said Abdulkarim ibn Muhammad as-Samo'niy at-Tamimiyy hijriy 592/milodiy 1196-yilda vafot etgan va u mashhur "Al-Ansab" va boshqa kitoblar muallifidir.
8. Rozuddin as-Sarxosiy nomi bilan kunyalangan "Al-Muhit ar-Rozaviy" kitobi muallifi Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad hijriy 544/milodiy 1149-yilda vafot etgan.
9. Masud ibn al-Hasan al-Koshoniy hijriy 520/milodiy 1126-yilda vafot etgan.
10. Abu al-Husayn Ali ibn Abu Bakr ibn Abdul-Jalil ar-Rashdoniy al-Marg'inoniy hijriy 593/milodiy 1197-yilda vafot etgan va u "Hidoya" kitobi muallifidir. Sadr Shahid rohimahulloh shogirdlarini yaxshi ko'rар va ularga yuksak ehtirom ko'rsatar edilar. Al-Marg'inoniy shogirdlaridan biri bo'lib, shayxlarning lug'atida u zotni zikr qilib: "**Men u zotdan falsafa va fiqh ilmini o'rgandim, ular meni yuksak ehtirom bilan ehtirom qilardilar va meni o'z shogirdlari safidan qildilar**".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шамсуддин Захабий. Сияру Аълам ан-Нубала. – Қохира: Дор ал-Хадис, Муҳаммад Айман аш-Шабраойи нашри, 2006.
2. Маҳмуд ибн Сулаймон Кафавий. Катаиб Аълом ал-Ахёр мин Фуқаҳои Мазҳаб ан-Нуъмон ал-Мухтор. – Байрут: Дор ал-Кутуб ал-Илмийҳ, Абдул Латиф Абдурраҳмон нашри, 2019.

3. Мұхаммад ибн Абду ал-Хайй Лакнаший. Ал-Фавўид ал-Баҳияҳ фи Тарожим ал-Ҳанафийя. Мұхаммад Бадриддин ан-Наъсоний томонидан тузатилган. Дор ал-Кутуб ал-Исламий, 1324-хижрий йил.
4. Абу Ҳафс Умар Насафий. ал-Қанд фи зикри улама ас-Самарқанд. – Техрон: Юсуф ал-Ҳодий нашри, Мирас Мактуб Нашриёти, 1999.
5. Абу Ҳафс Умар Насафий. Фатаво Шайх ал-Ислам Абул-Ҳасан Ато ибн Ҳамза ас-Суғдий. – Амман: Мұхаммад Ёсир Шоҳийн нашри, Дор ар-Риёҳин, 2020.